ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-6

TARJIMADA IDIOMATIK IBORALAR: ITALIYA TILIDAN O‘ZBEK TILIGA TARJIMA QILISHDA YUZAGA KELADIGAN MADANIY VA SEMANTIK FARQLAR.

Xudayberdiyev Jasurbek Djurayevich
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Italyan tili tarjima nazariyasi va amaliyoti kafedrasi o‘qituvchi
jasurbekme2022@gmail.com
+99899 882 03 91

Annotatsiya.

Ushbu maqola Italiya tilidagi mashhur iboralar va ularning o‘zbek tiliga tarjimasi masalasiga bag‘ishlangan. Tadqiqotda Italiya tilidagi idiomatik iboralar, ularning madaniy konteksti va o‘zbek tiliga tarjimada yuzaga keladigan lingvistik va madaniy muammolar tahlil qilinadi. Maqola Italiya va o‘zbek tillari o‘rtasidagi semantik va pragmatik farqlarni ochib berishga qaratil gan bo‘lib, tarjimada madaniy moslashuvning ahamiyatini ko‘rsatadi. Tadqiqot natijalari tarjimashunoslik va tilshunoslik sohasidagi mutaxassislar, shuningdek, Italiya tilini o‘rganuvchilar uchun foydali bo‘lishi mumkin.

Kalit so‘zlar: Italiya tili, o‘zbek tili, idiomatik iboralar, tarjima, madaniy moslashuv, lingvistik farqlar.

Аннотация

Данная статья посвящена проблеме перевода известных итальянских идиоматических выражений на узбекский язык. В исследовании рассматриваются идиомы итальянского языка, их культурный контекст, а также лингвистические и культурные трудности, возникающие при переводе на узбекский язык. Целью статьи является выявление семантических и прагматических различий между итальянским и узбекским языками и подчеркивание важности культурной адаптации в процессе перевода. Результаты исследования могут быть полезны специалистам в области переводоведения и лингвистики, а также изучающим итальянский язык.

Ключевые слова: итальянский язык, узбекский язык, идиоматические выражения, перевод, культурная адаптация, лингвистические различия.

Abstract

This article focuses on the issue of translating well-known Italian idiomatic expressions into Uzbek. The study analyzes Italian idioms, their cultural context, and the linguistic and cultural challenges that arise in translation into Uzbek. The article aims to highlight semantic and pragmatic differences between the Italian and Uzbek languages, emphasizing the importance of cultural adaptation in translation. The results of this research may be useful for specialists in translation studies and linguistics, as well as for learners of the Italian language.

Keywords: Italian language, Uzbek language, idiomatic expressions, translation, cultural adaptation, linguistic differences.

Kirish. Italiya tili o‘zining nafis fonetikasi, boy leksikasi va tarixiy-madaniy qatlamlari bilan jahondagi eng jozibador tillardan biridir. U asosan Dante, Petrarka, Bokkachcho, Manzoni kabi buyuk adiblar ijodi orqali dunyo adabiy merosiga ulkan hissa qo‘shgan. Ayniqsa, idiomatik iboralar ushbu tilning madaniy ko‘zgusi bo‘lib, milliy mentalitet, kundalik hayot va tarixiy jarayonlarning til in'ikosidir. Masalan, Dante Alighieri ‘‘Divina Commedia’’ asarida ishlatgan “lasciate ogni speranza

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-6

voi ch'entrate[1]" (bu yerga kirayotganlar, barcha umidingizni uzing) iborasi zamonaviy italyan frazeologiyasiga chuqur singib ketgan. Bu kabi iboralarni boshqa tillarga, xususan o'zbek tiliga tarjima qilish, tarjimon oldida nafaqat lingvistik, balki madaniy muammolarni ham keltirib chiqaradi. Italiya tilidagi idiomatik iboralar, ya'ni "modi di dire", tilning madaniy boyligini aks ettiruvchi asosiy elementlardan biridir. Bu iboralar xalqning donoligi, tarixiy merosi va hissiy kechinmalarining til orqali ifodalangan shaklidir.[2]

Iboralar tilning muhim tarkibiy qismlaru bo'lib, ular bizga yanada samarali muloqot qilishimizga yordam beradi. Bu iboralar alohida so'zlarning to'g'ridan-to'g'ri ma'nosidan farq qiladigan o'ziga xos ma'noga ega bo'lgan so'zlarning turg'un birikmasidir. Ular odatda kundalik tilda qo'llaniladi va turli kontekstlarda, jumladan suhbatlar, kitoblar va ommaviy axborot vositalarida topilishi mumkin. Iboralar o'zbek tilida ham keng qo'llaniladi va ularning o'rni juda muhimdir. Frazeologiya - bu tilshunoslikning alohida bir bo'limi bo'lib, tilda ikki yoki undan ortiq so'zdan tarkib topib, ko'chama ma'no ifodalaydigan, ma'nosi bir so'zga teng keladigan turg'un birikmalarini o'rganadi.[3] Frazeologik birliklarni turli xil nutqlarda keng qo'llanilishining sabablaridan biri bu ular murakkab fikrni ixcham tarzda yetkaza olishidadir, ular nutqga emotsional ekspressiv bo'yoqdorlik qo'shishga ham xizmat qiladi.

-Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Idiomatik iboralarni tarjima qilish masalasi tarjimashunoslikda juda dolzarb mavzulardan biri hisoblanadi. O'zbek tiliga oid izlanishlarda S. Karimov frazeologik birliklarning o'zbek madaniyatida xalqona obrazlar, qadimiy urf-odatlar va hayot tarzidan kelib chiqishini ko'rsatadi. Bu frazemalar ko'pincha hayotiy tajriba, qishloq xo'jaligiga oid tasvirlar, yoki o'zbek xalq maqollari bilan bog'liq bo'ladi. U shunday yozadi: "O'zbek tilidagi idiomalar ko'proq obrazli, ko'pincha hayvonot olami, qishloq mehnati yoki diniy tushunchalar orqali shakllanadi[4]''. Italiya adabiyotida Boccaccio, Goldoni, Eco, Pirandello kabi yozuvchilar o'z asarlarida xalq iboralarini keng qo'llagan. Ular orqali italyan idiomatik merosining tarixiy taraqqiyoti, funksiyasi va mazmuni o'rganilishi mumkin.

Italiya adabiyotida esa idiomatik iboralar ko'pincha dramatik, satirik yoki ijtimoiy kontekstda ishlatiladi. Masalan: Giovanni Boccaccio o'zining ''Decameron'' asarida xalq og'zaki tilidan kelib chiqqan iboralardan faol foydalanadi. U ayrim hikoyalarda tilshunoslik uchun qimmatli bo'lgan o'nlab xalqona iboralarga murojaat qiladi, masalan "rendere pan per focaccia[5]" ya'ni, qilingan yomonlikning shu barobarida yoki undan ham ko'proq ravishda qaytarish (jon uchun jin, yoki qon uchun qon) degan ruhda talqin qilinadi.

Italiya tilidagi idiomatik iboralar, ya'ni modi di dire, nafaqat tilshunoslik, balki madaniyatshunoslik, sotsiolingvistika va tarjimashunoslik sohalarida ham keng qamrovli tadqiqotlar markazida bo'lib kelmoqda. Bu borada italyan tilshunoslari, jumladan Giuseppe Antonelli, Tullio De Mauro, Francesco Sabatini va Luca Serianni singari yetuk mutaxassislarning ilmiy ishlari alohida ahamiyat kasb etadi.

Masalan, Tullio De Mauro o'zining "Storia linguistica dell'Italia unita[6]" asarida italyan tilining birlik jarayonida og'zaki nutqdagi iboralar va lahjalar qanday rol o'ynaganini tahlil qilib, modi di direlarni

[1] Dante Alighieri. La Divina Commedia. Inferno. Firenze, XIV asr.
[2] Patota, Giuseppe. L'italiano: lingua, storia, cultura. Roma: Laterza, 2012. 78-bet.
[3] Eurasia Journal Of Social Sciences, Philosophy and Culture. 2024. 146-147-betlar
[4] Karimov S. O'zbek tilidagi frazeologik iboralar. Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi.2009.
[5] Boccaccio G. Decameron. Firenze: Tipografia Classica.1620. 589-bet.
[6] De Mauro, Tullio. "Storia linguistica dell'Italia unita". Bari: Laterza, 1963. – 179-bet

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-6

madaniy identifikatsiyaning tarkibiy elementi sifatida ko‘rsatadi. Uning fikricha, iboralar xalqning kundalik hayoti, tarixiy xotirasi va ijtimoiy munosabatlarini aks ettiradi hamda ularni tarjima qilishda so‘zma-so‘z yondashuv samarasiz bo‘lishi mumkin.

Francesco Sabatini esa o‘zining ‘‘Lezioni di lessicologia italiana[7]’’ (1992) asarida leksik birliklarning madaniy belgilarini, xususan iboraviy birliklarning konnotativ va denotativ ma’nolari o‘rtasidagi tafovutlarni tahlil qilgan. U iboralarning tildagi ishlatilinishidagi funksional yukini aniqlab, ularning kontekstga bog‘liqligi haqida chuqur mulohaza yuritadi. Sabatini uchun iboralar – bu oddiy til vositalaridan ko‘ra ko‘proq, ular madaniy ifoda modeli va tarixiy tajribalarni o‘zida jamlagan semantik strukturalardir.

Giuseppe Antonelli esa “L’italiano nella società della comunicazione[8]” kitobida zamonaviy kommunikatsiya vositalarida idiomatik iboralarning qanday yangilanib borayotganini ko‘rsatib beradi. U iboralar bugungi ommaviy madaniyatda qanday omillarga moslashayotganini kuzatadi va iboralarni lingvistik yangilanishning harakatchi kuchi sifatida talqin qiladi. Uning tahlillarida ayniqsa, televidenie, reklama va ijtimoiy tarmoqlarda keng qo‘llanilayotgan yangi iboralarning analizi diqqatga sazovordir.

Yana bir muhim tadqiqotchi — Luca Serianni o‘zining “Italiano. Grammatica, sintassi, dubbi[9]” nomli fundamental tadqiqotida italyan tili grammatikasining murakkab jihatlarini tahlil qilish barobarida, iboralarning sintaktik tuzilmasi va stilistik xususiyatlariga ham e’tibor qaratadi. U iboralarning grammatika bilan uyg‘unligini va ularning og‘zaki hamda yozma nutqda qanday ishlatilishini tafsiliy o‘rganadi. Shuningdek, modi di direlarning tarixiy shakllanishi, ularning dialektlar orqali rasmiy tilda integratsiyalashuvi bo‘yicha ham muhim mulohazalar bildiradi.

Bundan tashqari, Mauro Lo Vetro o‘zining “I modi di dire: un viaggio nella lingua e nella cultura italiana[10]” nomli kitobida iboralarning madaniy va lingvistik kelib chiqishini tahlil qiladi. U iboralarning qadimiy mifologiyadan tortib, zamonaviy kino va reklama tiligacha bo‘lgan evolyutsiyasini ko‘rsatib beradi. Lo Vetro fikricha, iboralarni tarjima qilishda ularning paydo bo‘lgan konteksti, tarixiy semantikasini chuqur anglash zarur.

Tarjimashunoslik doirasida esa Silvia Bruti va Giuliana Garzone kabi olimlar iboralarning boshqa tillarga tarjimasida duch kelinadigan muammolar va strategiyalarni muhokama qilgan. Ular o‘z ishlarida Peter Newmarkning funksional ekvivalentlik nazariyasiga tayangan holda, har bir iboraning asl til madaniyatidagi o‘rni va mazmuni tarjima jarayonida e’tiborga olinishi lozimligini ta’kidlaydi. Shuningdek, Mona Bakerning “In Other Words: A Coursebook on Translation” asari ham idiomatik iboralarni tarjima qilishdagi asosiy nazariy yondashuvlarni o‘z ichiga olgan fundamental manba hisoblanadi.

Yuqoridagi manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, italyan tilidagi modi di dire nafaqat lingvistik birlik, balki muayyan madaniy hodisa sifatida ham o‘rganilishi zarur. Ularni o‘zbek tiliga tarjima qilishda faqat semantik muvofiqlik emas, balki madaniy kontekst, tilning ijtimoiy vazifasi va nutqiy vaziyatlar ham chuqur hisobga olinishi kerak.

---

[7] Francesco Sabatini. Lezioni di lessicologia italiana. Mondadori, Milano. 1992. – 94-bet

[8] Serianni, L. Italiano. Grammatica, sintassi, dubbi. Milano: Garzanti, 1989. – 154-bet

[9] Luca Serianni va Alberto Castelvecchi, Glossariy: Giuseppe Patota. Italiano. Grammatica, sintassi, dubbi. 1997. – 98-bet

[10] Lo Vetro Mauro. “I modi di dire: un viaggio nella lingua e nella cultura italiana”. Milano: Mondadori, 2010

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-6

Shuningdek italyancha komediyalar dramaturgi hisoblanmish Carlo Goldini o‘z asarlarida xalq tili va iboralariga suyangan. Uning ‘‘La locandiera’’[11] asarida ‘‘tenere il punto’’ (o‘zini bilganidan qolmaslik), ‘‘perdere la testa’’ (aqldan ozmoq), ‘‘fare il cascamorto’’ (ko‘nglini ovlamoq), ‘‘fare colpo su qualcuno (ko‘nglini og‘ritmoq) kabi iboralarni uchratishimiz mumkin.

-**Tadqiqot metadologiyasi.** Ushbu maqola italyan tilidagi idiomatik iboralarni tahlil qilishga bag‘ishlangan bo‘lib, ularning semantik, madaniy va tarjimaviy jihatlari o‘rganildi. Tadqiqot quyidagi metodologik yondashuvlarga tayandi:

-Deskriptiv-lingvistik tahlil. Maqolada italyan tilidagi mashhur idiomatik iboralar tanlab olinib, ularning tarkibi, so‘z tuzilishi, grammatik xususiyatlari va ma’no tuzilishi tahlil qilindi. Har bir ibora lingvistik nuqtayi nazardan ko‘rib chiqildi.

-Semantik-tarjimaviy yondashuv. Iboralarning tarjimasi faqat lug‘aviy emas, balki kontekstual, ramziy va madaniy jihatlarni hisobga olgan holda tahlil qilindi. Har bir ibora uchun o‘zbek tilidagi mos keluvchi ifodalar qidirildi va madaniyatlararo farqlar tahlil etildi.

-Tarixiy va adabiy kontekstualizatsiya. Italyan tilidagi iboralarning kelib chiqishi, ularning adabiy manbalardagi qo‘llanilishi (Dante, Calvino, Eco kabi yozuvchilar asarlaridan) va tarixiy asoslari tadqiq qilindi. Bu orqali iboralarning madaniy konnotatsiyasi va tarixiy ildizlari ochib berildi.

-Solishtirma metod (kontrastiv tahlil). Italyancha iboralar o‘zbekcha muqobillari bilan solishtirilib, tarjima muammolari, semantik moslik va madaniy ko‘chirish masalalari o‘rganildi. Bu metod italyan tilini o‘rganayotganlar va tarjimonlar uchun muhim metodik asos yaratadi.

-**Tahlil va natijalar.** Ushbu bo‘limda Italiya tilidagi mashhur idiomatik iboralar va adabiy iqtiboslarning semantik va pragmatik xususiyatlari tahlil qilinadi hamda ularning o‘zbek tiliga tarjimasi jarayonida yuzaga keladigan lingvistik va madaniy muammolar ko‘rib chiqiladi. Tadqiqotda kundalik hayotda qo‘llaniladigan idiomatik iboralar va Italiya adabiyotidagi muhim yozuvchilarning asarlaridan olingan iqtiboslar alohida tahlil qilinadi. Har bir ibora va iqtibosning tarjimasi semiotik, leksik va madaniy kontekstlar nuqtai nazaridan o‘rganilib, o‘zbek tilidagi ekvivalentlarning mosligi va moslashuv strategiyalari baholanadi. Tahlil natijalari tarjimada madaniy moslashuv va kontekstual ekvivalentlikning muhimligini ta’kidlaydi.

Italiya tilidagi iboralar, ya’ni modi di dire, tilning madaniy qatlamini ifodalovchi eng muhim lingvistik birliklardan biridir. Ular xalq donishmandligi, tarixiy xotira va hissiy tajribaning til orqali aks etgan shaklidir. Quyida tanlangan italyan tilida ko‘p uchraydigan iboralar va ularning o‘zbek tiliga tarjimasi tahlil qilib chiqamiz:

“In bocca al lupo” - “Omad tilayman” (so‘zma-so‘z: “Bo‘rining og‘ziga”). Ushbu ibora Italiya madaniyatida omad tilashning an’anaviy shakli bo‘lib, uning semantikasi teatr va xalq folkloridagi o‘ziga xos kontekstga bog‘liq. So‘zma-so‘z tarjima (“Bo‘rining og‘ziga”) o‘zbek tilida ma’nosiz bo‘lib, semiotik jihatdan noto‘g‘ri tushunchaga olib keladi. Shu sababli, funksional ekvivalent sifatida o‘zbek tilidagi “Omad yor bo‘lsin” iborasi tanlandi, chunki u pragmatik jihatdan xuddi shunday ijobiy tilakni ifodalaydi.

“Avere la botte piena e la moglie ubriaca” - “Hammasini bir vaqtda olishni xohlash” (so‘zma-so‘z: “Bo‘sh bochka va mast xotin”). “Bir qo‘lda ikki tarvuz tutmoq”. Ushbu ibora Italiya tilidagi tasviriy metafora bo‘lib, imkonsiz narsaga intilishni anglatadi. O‘zbek tilidagi “Bir qo‘lda ikki tarvuz tutmoq” iborasi semantik va pragmatik jihatdan deyarli to‘liq mos keladi, chunki ikkala ibora ham bir vaqtda bir nechta maqsadni amalga oshirishning iloji yo‘qligini tasvirlaydi. Biroq, Italiya iborasida gender

[11] Carlo Goldoni. La locandiera. A cura di F. Gavazzeni. Milano: Mondadori. 2006 - 88 bet.

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-6

stereotiplari (ayolga nisbatan “mast xotin” tasviri) seziladi, bu esa zamonaviy o‘zbek tilida madaniy qarashlarni hisobga olgan holda e’tiborga olinishi kerak. Tarjimada bu stereotipni yumshatish uchun umumiyroq ibora tanlanadi.

“Piove a catinelle” - “Yomg‘ir shiddat bilan yog‘moqda” (so‘zma-so‘z: “Chemlak bilan yog‘moqda”). “Sel kabi yomg‘ir yog‘moqda”. Bu ibora tabiiy hodisalarni tasvirlashda ishlatiladigan poetik metaforadir. Italiya tilidagi “chemlak” tasviri o‘zbek tilidagi “sel” metaforasi bilan o‘xshash bo‘lib, ikkalasi ham yomg‘irning shiddatliligini tasvirlaydi. Tarjima jarayonida semantik moslik saqlanib, o‘zbek tilining tasviriy uslubiga moslashtirildi.

“Essere al settimo cielo” - “Juda xursand bo‘lish” (so‘zma-so‘z: “Yettinchi osmonda bo‘lish”). Ushbu ibora Italiya va o‘zbek tillarida bir xil metaforik tuzilishga ega bo‘lib, xursandchilikni osmon bilan bog‘laydi. O‘zbek tilidagi “Osmonlarda uchmoq” iborasi semantik va pragmatik jihatdan to‘liq mos keladi, chunki u xuddi shunday hissiy yuksalishni ifodalaydi. Bu holat tillar o‘rtasidagi universal metaforalarni aniqlashda muhimdir, chunki bunday iboralar tarjimada moslashuvni osonlashtiradi.

“Non tutte le ciambelle riescono col buco” - “Hammanarsa ham mukammal bo‘lavermaydi” (so‘zma-so‘z: “Hamma kulchalar teshikli chiqavermaydi”). “Hamma ish ham o‘ngidan kelavermaydi”. Bu ibora Italiya madaniyatidagi kulinariya metaforasiga asoslanib, hayotdagi muvaffaqiyatsizliklarni tasvirlaydi. O‘zbek tilidagi ekvivalent umumiy ma’noda mos keladi, ammo Italiya iborasidagi kulinariya tasviri o‘zbek tilida to‘liq aks etmaydi. Tarjimada funktsional ekvivalent tanlash orqali iboraning pragmatik ma’nosi saqlanib qoladi, lekin madaniy o‘ziga xoslik qisman yo‘qotiladi.

“Pace non trovo, e non ho da far guerra[12]*”* - “Tinchlik topolmayman, lekin urush ham qilolmayman” (idiomatik ma’noda: ichki ziddiyat yoki muhabbatdagi noqulaylik). O‘zbek tiliga “Na rohat topaman, na jang qila olaman” deb tarjima qilinishi mumkin. Petrarkaning asaridagi ushbu frazeologik birlik muhabbat lirikasidagi ichki ziddiyatni tasvirlaydi va italiyan tilida hissiy noqulaylikni ifodalovchi idiomatik ibora sifatida ishlatiladi. O‘zbek tilidagi tarjima so‘zma-so‘z yondashuvga asoslanadi, lekin poetik ohangni saqlash uchun tasviriy uslubga e’tibor berildi. “Rohat” va “jang” so‘zlari o‘zbek tilining hissiy va tasviriy imkoniyatlarini aks ettiradi, ammo Petrarkaning nozik lirik uslubini to‘liq yetkazish qiyinchilik tug‘dirishi mumkin. Bu holat adabiy tarjimada muallifning individual uslubini saqlash muammosini ko‘rsatadi.

Tahlil natijasida aniqlanadiki, Italiya tilidagi idiomatik birliklarning o‘zbek tiliga tarjimasi jarayonida bir qator lingvistik va madaniy muammolar yuzaga keladi. Birinchi navbatda, idiomatik iboralar ko‘pincha madaniy kontekstga chambarchas bog‘liq bo‘lib, so‘zma-so‘z tarjimada semantik va pragmatik ma’nosini yo‘qotadi. Masalan, “In bocca al lupo” iborasining so‘zma-so‘z tarjimasi o‘zbek tilida ma’nosiz bo‘lsa, “Avere la botte piena e la moglie ubriaca” iborasida gender stereotiplari tarjimada qo‘shimcha e’tibor talab qiladi. Ikkinchidan, adabiy iqtiboslarda muallifning individual uslubi va falsafiy ohangini saqlash tarjimashunoslardan yuqori mahorat talab qiladi. Petrarkaning lirik uslubini o‘zbek tilida to‘liq aks ettirishda qiyinchiliklar mavjud. Tarjimada funksional ekvivalentlik va madaniy moslashuv strategiyalari muhim ahamiyatga ega. O‘zbek tilidagi tasviriy iboralar, masalan, “Osmonlarda uchmoq” yoki “Bir qo‘lda ikki tarvuz tutmoq”, Italiya iboralarining ma’nosini yetkazishda samarali bo‘lsa-da, ba’zi hollarda madaniy o‘ziga xosliklar yo‘qotiladi. Adabiy iqtiboslarda esa muallifning uslubini saqlash uchun kontekstual sharhlar va qo‘shimcha tushuntirishlar zarur. Ushbu natijalar tarjimashunoslikda madaniy va kontekstual omillarni hisobga olish zarurligini tasdiqlaydi.

[12] Francesco Petrarca, “Canzoniere” (Sonetto 134). Milano: Mondadori. 2004. – 345-bet

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-6

-**Xulosa va takliflar.** Ushbu tadqiqot italyan tilidan o‘zbek tiliga tarjima jarayonida yuzaga keladigan lingvistik va madaniy muammolarni o‘rganishga qaratildi. Tahlillar asosida aniq bo‘ldiki, turli madaniyatlar o‘rtasida chuqur ildiz otgan til birikmalarini bevosita tarjima qilish ko‘p hollarda ifodaning asl ma’nosi, ruhiy ohangi yoki konnotatsiyasini yo‘qotadi. Shuning uchun tarjimada so‘zma-so‘z yondashuv emas, balki mazmunni, kontekstni va madaniy tafsilotlarni hisobga olgan funksional yondashuv afzal sanaladi.

Shuningdek, adabiy matnlar tarjimasida muallifning individualligi, uslubiy yondashuvi va estetik didi muhim rol o‘ynaydi. Bu esa tarjimondan nafaqat til bilimini, balki manba madaniyatini chuqur tushunishni ham talab qiladi. Ba’zi hollarda o‘zbek tilidagi ekvivalentlar yetarli bo‘lmagani uchun qo‘shimcha izohlar, kontekstual sharhlar va izchil madaniy moslashtirishlar zarur bo‘ladi.

Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, tarjimashunoslikda til bilimi yetarli emas — muvaffaqiyatli tarjima uchun madaniyatlararo tafovutlarni anglash, ularni kontekstga moslashtirish va maqsadli auditoriyaga mos shaklda ifodalash zarur. Ayniqsa, badiiy va idiomatik matnlar tarjimasida har ikki tilga xos poetik, estetik va mantiqiy tuzilmalarni muvofiqlashtirish tarjimaning sifatini belgilovchi asosiy omillardan biridir.

Xulosa qilib aytganda, madaniy va kontekstual moslashuv strategiyalarini to‘g‘ri qo‘llay olgan tarjimon — nafaqat matnni o‘giradi, balki bir madaniyatni boshqasiga mazmunan, hissiy jihatdan va uslubda yetkazadi. Bu yondashuv esa tarjimashunoslik fanining amaliyotga qanchalik chambarchas bog‘liqligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Dante Alighieri. La Divina Commedia: Inferno, Purgatorio, Paradiso. Edizione critica a cura di Anna Maria Chiavacci Leonardi. Milano: Mondadori, 2011.
2. Patota, Giuseppe. L’italiano: lingua, storia, cultura. Roma: Laterza, 2012. 78-bet.
3. Eurasia Journal Of Social Sciences, Philosophy and Culture. 2024. 146-147-betlar
4. Karimov S. O‘zbek tilidagi frazeologik iboralar. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. 2009.
5. Boccaccio G. Decameron. Firenze: Tipografia Classica.1620. – 985-bet.
6. Carlo Goldoni. La locandiera. A cura di F. Gavazzeni. Milano: Mondadori. 2006 - 228 bet
7. De Mauro, Tullio. “Storia linguistica dell’Italia unita”. Bari: Laterza, 1963. 225 bet
8. Francesco Sabatini. Lezioni di lessicologia italiana. Mondadori, Milano. 1992. - 224 bet
9. Giuseppe Antonelli. L’italiano nella società della comunicazione. Bologna: Il Mulino. 2016. - 270 bet.
10. Luca Serianni va Alberto Castelvecchi, Glossariy: Giuseppe Patota. Italiano. Grammatica, sintassi, dubbi. 1997. – 609 bet
11. Lo Vetro Mauro. “I modi di dire: un viaggio nella lingua e nella cultura italiana”. Milano: Mondadori, 2010. – 356 bet
12. Francesco Petrarca, “Canzoniere” (Sonetto 134). Milano: Mondadori. 2004. - 464 bet